



LINGVISTIK HAMDA XALQONA POETIK TASVIR MAHORATI

Gulnoza Turdiyeva Sayfullayevna

*O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
ilmiy tadqiqotchi*

turdiyeva806@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0000-0312-8745>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17450583>

Annotatsiya: Maqolada Isajon Sultonning "Toshkelinchak" hikoyasida aks etgan til va badiiy xususiyatlar lingvopoetik hamda lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Asarda milliy ruh, xalqona tafakkur va og'zaki ijod an'analari o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'lishi, qahramonlar nutqida maqol va matallar, frazeologik birliklarning qo'llanishi, ularning badiiy-estetik yuklamasi ilmiy asosda izohlanadi. Tadqiqotda hikoyaning badiiy tuzilmasi, syujet va motivlarning ramziy talqini orqali o'zbek xalqining ma'naviy hayoti va milliy qadriyatlari ifodasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: folklor, rivoyat, hikoya, uslub, motiv, ramz, "Toshkelinchak", frazeologik birlik, lingvopoetika, xalqona tasvir.

Bugungi kunda badiiy asar tili milliy adabiy til taraqqiyoti uchun eng asosiy manbalardan biri sifatida dolzarb tadqiq obyektlariga aylandi. Til birliklarining muayyan yozuvchi va shoirlarning ijod mahsullaridagi poetik xususiyatlarini tahlil etish, lisoniy hodisalarning nutqiy voqelanish imkoniyatlarini asoslash, umuman, lingvopoetik xususiyatlarini ochib berish lingvopoetik tadqiqotlarning markaziy yo'nalishiga aylangan. Jumladan, Isajon Sulton asarlari lingvopoetik unsurlar, lingvomadaniy hodisalarga boy. Ayniqsa, hikoyalarining har birida o'zbek xalqining milliy qiyofasini yaratish, xalq hayotini yorqin bo'yoqlarda tasvirlash uslubi ustuvor. Voqeadan voqeaga ko'char ekan, tasvirlarda oramizdagi oddiy odamlarning turfa taqdirlari namoyon bo'ladi, bu taqdirlarni birlashtirsa, bir butun o'zbek hayoti ko'z o'ngimizda bor bo'y-basti bilan bo'ylanadi. Isajon Sulton hikoyalarining bu qadar hayotiy va ishonarli bo'lishiga sabab, xalq hayotini yaxshi bilganligi, yozuvchining o'tkir ko'ziga ega bo'lganligi hamda xalq iboralari, maqol-matallaridan, xalqona tasvir va folklor elementlaridan xalq qo'shiqlari-yu shoirlarning mashhur she'rlaridan o'z o'rnida muvaffaqiyatli foydalana olganligidadir. Ta'kidlash kerakki, xalqona tasvirlash mahorati zaminida xalq ijodini puxta o'rganish yotadi. Bu xalqning turmush tarzi, urf-odati, an'analari, tarixi, buguni, kelajagini va ruhiyatini o'rganish demakdir.

Mustaqillik davri o'zbek nasri taraqqiyotiga munosib ulush qo'shib kelayotgan ijodkor O'zbekiston Xalq yozuvchisi Isajon Sultonning badiiy qurilmasi pishiq, bayon uslubida xalqona motivlar singdirilgan, sodda odamlarning turmush tashvishlari, o'y-xayollari berilgan "Bog'i Eram", "Qo'riqchi", "Shamolli kecha", "Avazboylik tantilar", "Yusuf va Zulayho", "Qish ertaklari", "Xun", "Yog'och



kovush”, “Onaizor” kabi nomlanishiy oq e’tiborni jalb etuvchi qator asarlarida xalq tilining barcha badiiy xususiyatlari namoyon bo’lgan deyish mumkin. Isajon Sultonning analitik folklorizmlardan ijodiy foydalanilgan hamda leksik xususiyatlarga boy asarlaridan biri “Toshkelinchak” hikoyasidir. Unda sevgining kuchi, uning inson taqdirini, xarakterini nechog’li o’zgartirib yuborishi asosiy planda aks ettirilgan.

“Toshkelinchak” hikoyasi voqealari turkiy xalqlar orasida qachonlardir bo’lib o’tgan muhabbat rivoyati bilan bog’liq holda tasvirlanadi, bunda tosh ramzi va Nazar obrazining ruhiy iztirobi lingvopoetik asosda talqin qilinadi. Yozuvchi hikoyaning asosiy qahramoni, hech kimga so’z bermaydigan, qaytmas, shijoatkor Nazarning sevgisiga erisholmagach, qishloq chetidagi ziyoratgoh sanalgan qadim tosh yonida o’z xayollariga bandi, odamovi bo’lib, kunni tunga ulashini tasvirlaydi. Nazar timsoli nafaqat sevganidan ayrilgan inson, balki ruhiy musofir — o’z yurti, o’z tanasi ichida ham joy topolmayotgan qalb sifatida tasvirlanadi.

Hikoyaning *“Ziyoratgoh yonidan katta yo’l o’tgan, bir yog’i O’shdan Ergashtomga, bu yog’i Qamchiq dovoni oralab, Toshkentdan Qozog’istonning bepoyon cho’llariga qarab ketadi. Turli-tuman uzun-qisqa arobalar qatnovi bir zum bo’lsin tinmaydi”* jumllaridan anglash mumkinki, “Toshkelinchak” hikoyasi voqealari rivoyat unsurlari badiiy talqini fonida yoritilgan. Tosh hikoyada nafaqat jism, balki toshga aylangan kelinchak qismatining ramziga aylangan. Bu tosh insoniy tuyg’ularning og’rig’i, sukunati, sabr va sadoqati va abadiyligi timsolidir. Isajon Sulton bu obraz orqali sevgi, sadoqat va fidoyilikning xalqona-falsafiy talqinini yaratadi. Yozuvchi asrlar osha mumtoz adabiyotimizda yashab kelayotgan cheksiz sadoqat va muhabbat timsoli Majnun obrazining qirralarini ham hikoya qahramoni Nazar qiyofasida gavdalantirgan deyishimiz mumkin. Ummugulsum hajrida kuyib, o’rtangan Nazarning holatini hikoyachi tilidan quyidagicha tasvirlangan. *“Ruhi ko’z o’ngimizda so’nib bormoqda edi. Ko’rsangiz, avvalgi Nazardan asar ham qolmagan, yurish-turishidagi shiddati yo’qolgan, hardamxayol, bir o’ziga kelib atrofga alanglasa, bir xayollari ichiga g’arq bo’lib ketadigan yigitga aylanib bormoqda edi. Nasihatlar, o’gitlar, misollar kor qilmas bo’ldi”*. Hikoya boshidagi Nazarni bu Nazar bilan solishtirsak, butunlay boshqa yigit qiyofasini ko’ramiz: *Nazar baquvvat, chayir, quyug qoshlari chimirilgan, qora ko’zlarida o’t chaqnab turadigan shijoatli yigitcha edi. U jo’raboshimiz bo’lib, hammamiz nima desa itoat qilardik. Chunki aqlida ham, kuchda ham bir pog’ona baland turardi-da.*

Hikoyada xalq maqol va matallari, iboralaridan ham mahorat bilan foydalanilgan. Jumladan, adib Nazarning Ummugulsumga mos juft sifatida tasvirlar



ekan: *"Tegirmonga tushsa butun chiqadigan", shaxt-u shiddati jismiga sig'may toshib turgan Nazarga tegmasdan kimga ham tegardi? "Yo'qni yo'ndiradigan", "borni bor qiladigan" bunday yigitga qaysi qiz ham yo'q derdi?"* ifodalarni qo'llaydi va shu singari bir nechta iboralar ijodkor niyatini amalga oshirishga xizmat qilgan. Yoki Ummugulsum amma xolalarining Nazarga aytgan gaplarida (*"– Hoy, jon bolam, qo'ying, keting endi, – debdi xotinlarning yoshi kattarog'i. – Nima qilasiz bechorani qiynab? "Og'zidan qora qonini keltirdingiz-ku" qiz sho'rlikni!"*), Ummugulsumning to'yida aytilgan tilaklarda (*"Borgan joyingga toshday tushgin. Toshday tushginu toshday qolgin"*) xalq og'zaki ijodidan hamda frazeologik birliklardan keng foydalanilgan. Ummugulsumning to'yida hofizlar tomonidan kuylangan, ramzan oshiq Nazar dilidan sitilib chiqqanday taassurot qoldiradigan quyidagi mashhur qo'shiq misralariga diqqat qilamiz: *To'ylar muborak, Ey yori jonim, To'yona bo'lsin-a, Tan birla jonim... Tavba, bitta jon-u bir tanim boriydi, shuni endi sen olaqol, deganimi bu? Bu dunyoda kezib yurishimning hech ma'nosi qolmadi, har ikkisi ham to'yingga to'yona bo'laqolsin, deganimi bu?*

Hikoyada ishlatilgan frazeologik birliklar (masalan, *"bag'rini yerga berib yotmoq"*, *"hafsalasi pir bo'lmoq"*, *"ko'ngil qo'ymoq"*, *"yurakni dog'lab qo'ymoq"*) nafaqat xalqona nutqning boyligini, balki qahramonlarning ruhiy holatini aks ettirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu birliklar orqali yozuvchi milliy fikrlash uslubini, dunyoqarashni va his-tuyg'ularning tabiiy ifodasini jonli til orqali yoritadi. Asardagi o'nlab frazeologik birikmalar asarning muvaffaqiyatini ta'minlashda katta o'rin tutadi. Jonli xalq tilining bu imtiyozi badiiy asarlarning sodda, ko'chimli, o'qishli bo'lishiga asqotadi. Frazeologik birliklar yozuvchi asarlari tilining obrazli va ta'sirchan ifodalanishiga xizmat qilib, voqelikni badiiylashtirishda, epik turga xos syujetning poetik xususiyatini kitobxon tafakkurida obrazli ifodalanishida yetakchi lisoniy vositaga aylangan. Isajon Sultonning ushbu hikoyasida qo'llangan frazeologizmlarning tarkibi deyarli hech qanday o'zgarishga uchramagan. Bu o'z-o'zidan iboralarning mazmuniy va shakliy strukturasiidagi invariant belgining saqlanishi hisoblanadi. Masalan, Ummugulsumning to'yi kunidagi ayrim tuyg'ular tasvirida: *"Nazar Toshkelinchakda bag'rini yerga berib yotaverdi-yu, bu yoqda barcha alyorlar Nazar tilidan aytilaverdi:*

*Bu musofir dashtida har dam tutoshib yonaman,
Har qayon borsam bu kun, yo'ldan adoshib boraman.*

Dog'lab qo'ydi yurakni bu falakning gardishi,

Qismatim shundoq ekan, men jumladin begonaman" parchadagi *"bag'rini yerga berib yotmoq"* iborasi, qo'shiqdagi *"tutab yonmoq"*, *"yo'ldan adoshib*



bormoq", "yurakni dog'lab qo'ymoq", "falakning gardishi", "jumladin begona bo'lmoq" kabi frazeologik birliklari fikrimiz isbotidir.

Hikoyadagi deyarli har bir jumlada bir nechta frazeologik birliklar voqeani hayotiy tasvirlashga xizmat qilgan: *Nazarning kimni yaxshi ko'rib qolgani ma'lum bo'ldi: narigi ko'chadagi Samad novchaning qizi Ummugulsum ekan. E, dedim hafsalam pir bo'lib* matnida "yaxshi ko'rib qolmoq", "hafsalasi pir bo'lmoq" iboralari; *Shu bolaga bir-ikki og'iz gapirib, epaqaga keltirib qo'ya oladigan kimsa yo'qmikin, der edilar* jumlasida "bir-ikki og'iz gapirmoq", "epaqaga keltirib qo'ymoq" iboralari; *Ummugulsumning oilasi o'ziga to'qroq bo'lgani uchun Nazarning oilasini mensimabdi, "Qizimni tagli-tugli, o'qigan bolaga beraman" debdi* jumlasidagi "o'ziga to'q", "tagli-tugli" iboralari; – *Yigit uylansa esi kiradi, deyishardi. Qarang-a, qanaqa bezori bola edi, ko'ngil qo'ydi-yu bosildi-qoldi, – deyishardi kishilar* jumlasida "esi kirmoq", "ko'ngil qo'ymoq"; *"Aytay desa, tili kuyadi, aytmay desa, dili", Hah qizgina-ya, ota-onangni gaplariga qaramasdan, shu Nazarga tegib qo'yaqolsang, osmon uzilib, yerga tusharmidi? Seni yer-u ko'kka ishonmay, umrini oxirigacha avaylab o'tmasmidi, tosh kelsa kemirib, suv kelsa simirmasmidi?* parchasida "osmon uzilib, yerga tushmoq, "yer-u ko'kka ishonmay", "tosh kelsa kemirib, suv kelsa simirmoq" iboralarini misol qilish mumkin. *Qachonki ishq otashi tutashsa, odam so'zona bo'ladi. Jigari laxta-laxta qon bo'ladi. Indamasa, ichi lov-lov yonadi. Aytay desa, tili kuyadi, aytmay desa, dili...* "Jigari laxta-laxta qon bo'ladi", "ichi lov-lov yonmoq" frazeologik birliklaridagi taqlid so'zlarning takror holda kelishi ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan.

"O'takasi yorilmoq", "Og'zi ochilib qolmoq", "Hafsalasi pir bo'lmoq", "Ko'ngil qo'ymoq", "Joniga tegmoq", "Balanddan kelmoq", "Osmon uzilib, yerga tushmoq", "Ko'krak kermoq", "O'z dunyosiga g'arq bo'lmoq", "Boshi oqqan tomonga ketmoq", "Ko'z ostiga olmoq", "Toshini termoq", "Tosh kelsa kemirmoq, suv kelsa simirmoq", "Boshi oqqan tomonga ketmoq", "Bo'yin tovlamoq", "Yer-u ko'kka ishonmay", "Qovoq uymoq", "Tegirmonga tushsa butun chiqmoq", "Yo'qni yo'ndirmoq", "Hafsalasi pir bo'lmoq"...kabi bir hikoyaning o'zida 30 dan ziyod frazeologik birliklarning ma'lum bir maqsad bilan o'z o'rnida qo'llanilishi, shubhasiz, asar badiiyati va xalqchilligini orttirishga xizmat qilgan.

Yozuvchi hikoyalarida leksik vositalarning ifodalanishi, lingvopoetik xususiyatlarning bo'rtib turishi asarlarining badiiy-estetik qiymatli ekanligi bilan xarakterlanadi. Ijodkor zid ma'noli so'zlarning lisoniy yoki nutqiy resursidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so'zni tanlab qo'llash orqali mazmunning eng nozik nuqtalari, qahramonning ruhiyati, kontrast tasvirlar yaratish, tasvir



obyektining eng kichik qirralarigacha real ko‘rsatishga erishadi. *“Chunki aqlda ham, kuchda ham bir pog‘ona baland turardi-da. ..O‘zg‘irlikda va bezorilikda ham unga bas keladigan kimsa yo‘q”*. Aqlda ham, kuchda ham - ijobiy baho emotsiyasiga ega bo‘lsa, *O‘zg‘irlikda va bezorilikda ham* ifodasi unga qarama-qarshi ma‘noda ishlatilgan. Asar boshida qahramon haqidagi *“Bizlar gohida ota-onamizning buyurgan ishlaridan bo‘yin tovtasak ham, Nazar sira unday qilmasdi, qaytanga, yumushlarni jon-jahdi bilan, berilib bajarardi”* kabi tasvir asar o‘rtalarida *“Nazar esa... nazardan qola boshladi. Ishlagisi kelmas, hafsalasi pir edi. Hech qaerga sig‘masdi, kechalari daydib yuraverardi”* tasviri bilan o‘rin almashib, kontrast tasvirlar yaratiladi. Adib zid ma‘noli leksemalar, leksik-frazeologik vositalardan unumli foydalanish bilan birga, tilni boyitishga qo‘shgan hissasi bilan ham e‘tiborlidir. So‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra sinonim, antonim kabi turlaridan, troplardan, barqaror birikmalardan unumli foydalanish, hikoyalarda qahramonlarning o‘ziga xos xarakterini, milliy koloritni voqealar rivojiga munosabatini ifodalash va o‘quvchining diqqatini tortish, ekspressivlikni ta‘minlash kabi xususiyatlarni ifodalashga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Isajon Sulton hikoyalarida frazeologik birikmalardan badiiy asar qahramonlarining milliy-mental, milliy-madaniy sifatlarini yorqin aks ettiruvchi vosita sifatida unumli foydalanilgan. Yozuvchining nasriy nutqida poetik maqsadli so‘zlar, qo‘llanish doirasi chegaralangan so‘zlar, okkazonal birikmalar, paremlar hamda ko‘chimlar leksopoetik vosita sifatida badiiy-pragmatik mohiyat kasb etgan. *“Toshkelinchak”* hikoyasi o‘zbek nasrida lingvopoetik mahoratning yorqin namunasi sifatida alohida o‘rin tutadi. Asarda xalqona frazeologizmlar, ramziy timsollar va poetik tasvir vositalari uyg‘unligi orqali milliy tafakkur, ruhiy kechinmalar va ma‘naviy qadriyatlar badiiy ifodasini topgan. Yozuvchi tili hayotiy, jonli va obrazli bo‘lib, xalq ruhini, tili va madaniyatini ifodalovchi badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Исажон Султон. Тошкелинчак. / Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги матбаа нашриёт уйи, 2017. – Б. 381.
2. Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологияси масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. – 4-сон. – Б.37-45.
3. Qurbonova F.A, F.Y.Jumanboyeva I.Sultonning“Toshkelinchak” hikoyasida folklorizmlarning o‘rni. India international scientific online conference the theory of recent scientific research in the field of pedagogy 145-b
4. Habibullayeva S.A. Isajon Sulton hikoyalarining lingvopoetik tadqiqi f.f bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. Farg‘ona – 2024
5. Qobilova E. Isajon Sulton hikoyalarida xalq qo‘shiqlarining o‘rni. Qo‘qon DPI